

**BANK MAHSULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH
YO'NALISHLARI**

PhD, Xujamuratov Abbos Mardonovich

ATB "O'zsanoatqurilishbank"

Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti direktori

Annotatsiya. Zamonaviy tijorat banklari mahsulotlarini takomillashtirishda yangi texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqola bank mahsulotlarining samaradorligini oshirish, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va raqobatbardoshligini kuchaytirish yo'llarini o'rganadi. Banklar, iqtisodiy sharoitlar va texnologik taraqqiyotga mos ravishda o'z mahsulotlarini yangilab borishmoqda. Raqamli va yashil kredit mahsulotlari kabi innovatsion mahsulotlar, zamon talablariga javob beradigan yangi xizmat turlarini yaratish imkonini beradi. Maqolada zamonaviy bank mahsulotlarini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va ularning iqtisodiy ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Zamonaviy bank mahsulotlari, bank mahsulotlarini takomillashtirish, raqamli kreditlar, yashil kreditlar, innovatsion mahsulotlar, bank raqobatbardoshligi, iqtisodiy ta'sir, texnologik taraqqiyot, bank strategiyasi.

Bank mahsulotlari va xizmatlari bozori, davom etayotgan iqtisodiy o'zgarishlar va transformatsiyalashuvning o'ziga xos ko'rsatkichi sifatida shakllanadi. Banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi, ularning berilgan kreditlari, muddati o'tgan qarzlar summasi, hisob-kitob va to'lov operatsiyalarining rivojlanish darajasi, qimmatli qog'ozlar va chet el valyutasi bilan operatsiyalar va boshqa moliyaviy amaliyotlar barchasi moliya sohasining hozirgi holatini va uning rivojlanish tendensiyalarini ko'rsatadi. Bank tizimining yaqin istiqbolda rivojlanish tendensiyalarini aniqlash mazkur soha faoliyatining





ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash va uni yanada rivojlantirish yo'nalishlarini asoslash imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, iqtisodiy adabiyotlarda bank xizmatlari bozorining turli ta'riflari mavjuddir, biz ularni tadqiqotimizning birinchi boblarida ko'rib o'tganmiz.

Zamonaviy bank xizmatlari bozorida, nafaqat tijorat banklari, balki boshqa moliya-kredit tashkilotlari o'rtasida ham bank faoliyatining an'anaviy yo'nalishlarida (depozitlarni jalb qilish, kreditlar berish, bo'lib to'lash, nasiyaga savdo qilish, akkreditivlar) ham, shuningdek, boshqa bank xizmatlarini (hisob-kitob va to'lov operatsiyalari, plastik kartochkalarni chiqarish va ularga xizmat ko'rsatish, mablag'lar va resurslarni ishonchli boshqarish, fond va valyuta bozorlarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, raqamli platformalar) ko'rsatishda ham raqobat sezilarli darajada ortmoqda. Bu jarayon nafaqat tijorat banklari, balki boshqa moliyaviy subyektlar, shu jumladan raqamli platformalar va marketpleyslar tomonidan ham faollashtirilmoqda. Shunday qilib, raqobatning shiddati oshib bormoqda, bu esa bozordagi dinamik va innovatsion o'zgarishlarni qo'zg'atmoqda.

Mazkur tadqiqot doirasida biz zamonaviy bank xizmatlari bozorining asosini tashkil qilgan kredit va depozit xizmatlari faoliyatining xizmat ko'rsatish bozorlaridagi miqdoriy va sifat tendensiyalarini aniqlashtirib olamiz.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida tijorat banklari mahsulotlari bozorining rivojlanish yo'nalishlari qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiqdir, jumladan:

Birinchi yo'nalish, bu kreditorlar tarkibining kengayishi, ular taklif etayotgan kredit mahsulotlari va kreditlash mexanizmlarning turli-tumanligi.

Ikkinchi yo'nalish, bu kreditlar hajmi va bir subyektga beriladigan kredit miqdorlarining keskin o'sishidir.



Uchinchi yo'nalish, bu kredit bozori subyektlari tomonidan berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarning sezilarli miqdorlarni tashkil etishi.

To'rtinchi yo'nalish, bu maxsus vakolatli davlat organing (Markaziy bank) qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqqan holda kreditlar bo'yicha foiz stavkalari darajasining o'zgarishini oldingiday ta'sir qilish qobiliyatini susaytirib yuborishi.

Beshinchi yo'nalish, bu kredit munosabatlari infratuzilmasining zamon talablari asosida rivojlanishi.

Oltinchi yo'nalish, bu kreditorlarning qarz oluvchilarga qo'yadigan talablarining nisbatan susayishi. Bunday tendensiya nafaqat tijorat banklari va balki boshqa moliya-kredit institutlari tomonidan ham amalga oshirilmoqda.

Tadqiqotlarni ko'rsatishicha, banklarda kredit mahsulotlari bilan bir qatorda depozit mahsulotlarini sotish jarayoni ham rivojlanmoqda. Hozircha mazkur mahsulotlar bozorida kreditlash sohasiga o'xshagan kuchli raqobat muhiti shakllanmagan. Shulardan kelib chiqqan, holda depozit mahsulotlari va xizmatlari bozorining rivojlanish yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin bo'ladi, jumladan:

Birinchi yo'nalish, bu depozitlarga mablag'larni jalb qilish hajmining barqaror o'sishi (tijorat banklarining raqobat muhitida depozit foiz stavkalarining oshib borishi).

Ikkinchi yo'nalish, bu tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag'lar hajmining boshqa nobank subyektlar tomonidan jalb qilingan mablag'lar hajmidan ustunligi.

Uchinchi yo'nalish, depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining barqarorligi. Depozit xizmatlari bo'yicha foiz stavkasi bevosita regulyatorning qayta moliyalashtirish stavkasiga bog'liqligi.

To'rtinchi yo'nalish, bu milliy valyutada depozitlarni jalb qilish hajmining xorijiy valyutadagi depozitlarni jalb qilish hajmidan yuqoriligi.



Beshinchi yo'nalish, bu jismoniy shaxslar depozitlari hajmining yuridik shaxslar depozitlari hajmidan ko'pligi, ya'ni aholi ham yuqori depozit stavkalari asosida bo'sh pul mablag'larini depozitlarga qo'yish amaliyoti asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda.

Oltinchi yo'nalish, bu taklif etilayotgan depozit mahsulotlari va xizmatlari turlarining kengayish tendensiyasi.

Yuqorida olib borilgan tadqiqotlar natijasida bir qator xulosalarni shakllantirishimiz mumkin bo'ladi:

Birinchidan, milliy bank mahsulotlari (xizmatlari) bozorining depozit va kredit sohalarida asosiy subyektlari hali ham tijorat banklari saqlanib qolmoqda, albatta bu hajm jihatidan innovatsiyalar jihatidan emas. Ular jalb qilingan depozitlar va berilgan kreditlar hajmi bo'yicha yuqori ulushlarni tashkil etish kelmoqda;

Ikkinchidan, depozit mahsulotlari va kredit bozorlari davom etayotgan makroiqtisodiy o'zgarishlarga ta'sirchanligini namoyon etmoqda.

Bank mahsulotlari va xizmatlari bozori iqtisodiy o'zgarishlar va transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning rivojlanish ko'rsatkichlari banklar tomonidan jalb qilingan depozitlar hajmi, berilgan kreditlar, muddati o'tgan qarzlar, hisob-kitob va to'lov operatsiyalari darajasi kabi omillar orqali aniqlanadi. Bank tizimining rivojlanish istiqbollari, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bank xizmatlari bozorining turli ta'riflari mavjud, ularni ikki asosiy yondashuvga ajratish mumkin. Birinchi yondashuvda, banklar faoliyat ko'rsatadigan barcha bozorlar bank xizmatlari bozoriga kiradi, ikkinchi yondashuv esa bank xizmatlarini maxsus sektor sifatida ajratib ko'radi. Hozirgi kunda banklar, nobank tashkilotlar va raqamli platformalar orasida raqobat oshmoqda, bu esa bozorda dinamik va innovatsion o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.



Depozit mahsulotlari bozorida ham rivojlanish kuzatilmoqda. Depozitlarning hajmi barqaror o'sishda bo'lib, tijorat banklarining foiz stavkalari raqobatga qarshi ko'tarilmoqda. Yuridik shaxslar uchun depozit hajmi oshmoqda, ammo aholi (jismoniy shaxslar) uchun depozitlar ko'proq jalb qilinmoqda. Depozit mahsulotlari sifatida yangi turlar (masalan, struktural depozitlar, ko'p valyutali depozitlar) taklif etilmoqda.

Bundan tashqari, banklar o'z xizmatlarini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Mobil ilovalar, onlayn banking, elektron hamyonlar va blokcheyn texnologiyalari mijozlarga qulaylik yaratib, moliyaviy xizmatlarni tezlashtirmoqda. Bank mahsulotlarini individuallashtirish va shaxsiylashtirish ham rivojlanib, mijozlarning moliyaviy ehtiyojlariga mos xizmatlar taklif etilmoqda.

Innovatsion kreditlash va depozit xizmatlari ham o'zgarib, yangi raqamli va yashil kreditlar kabi mahsulotlar paydo bo'lmoqda. Yashil kreditlar ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, innovatsion raqamli kreditlar texnologiyalardan foydalanib, tez va qulay moliyalashtirish imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Bundan tashqari, bank tizimida xavfsizlikni ta'minlash, kiberxavfsizlikni mustahkamlash, biometrik autentifikatsiya va risklarni boshqarish sohalarida ham yangi texnologiyalarni joriy etish zarurati mavjud.

Umuman olganda, bank mahsulotlari va xizmatlari bozori rivojlanishda davom etmoqda va bu o'zgarishlar raqobatni kuchaytirib, yangi moliyaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etishni talab qiladi.